



BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY O'RGANLARIGA A'ZOLIKDA XULMMA-XILLIK

Mirzayeva Nixola Akramovna

Toshkent davlat yuridik universitet tayanch doktoranti

mirzayevanihola2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17275532>

Annotatsiya. BMTning inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlarining tarkibida a'zolik ma'lum talablarni bajarishni talab qiladi. A'zolik uchun eng acvvalo a'zo shartnomani ratifikatsiya qilgan davlat fuqarosi bo'lishi va ma'lum bir soha bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lishi lozim.

BMT inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlari tizimini mustahkamlash jarayoni shartnomaviy organ a'zolari tarkibidagi xilma xillikning muhim ekanligini namoyon qildi. Ushbu maqolada shartnomaviy organ tarkibi muhokama qilinadi. Yuqoridagidan tashqari mazkur maqolada ma'lum bir vaqt oralig'ida shartnomaviy organlar tarkibiga saylov tartibida yuz bergan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Ushbu maqolaning maqsadi a'zolik to'g'risidagi shartnoma qoidalari, shartnoma organlarini mustahkamlash bo'yicha Bosh Assambleyaning tavsiyalari va shartnomaviy organlarining haqiqiy tarkibi o'rtasida bog'lanishni namoyon qilishdir.

Ushbu maqola to'rt qismdan tashkil topgan. Birinchi qismda shartnomaviy organ tarkibiga aloqador bo'lgan shartnoma qoidalari muhokama qilingan. Ikkinchi qismda hukumatlararo shartnomaviy organlarini mustahkamlash jarayoni doirasida berilgan tavsiyalar yoritilgan. Uchinchi bo'limda ushbu tadqiqotning metodologiyasi va cheklovlari tavsiflanadi. Yakuniy bo'limda shartnoma organlarining tarkibi va uning ma'lum bir vaqt oralig'idagi bir necha yo'nalishdagi evolyutsiyasi tahlil qilinadi.

BMT inson hquqlari bo'yicha shartnomalarda shartnomaviy organlar a'zoligiga aloqador bo'lgan bir qancha talablar mavjud. Bu talablar fuqarolik, axloqiy xarakter, xizmat shartlari, vakillik va sohadagi tajribaga tegishli.

Barcha inson huquqlari bo'yicha shartnomalarda shartnomaviy organlar eksperti vazifasiga mos kelish uchun talab qilinadigan uchta asosiy talab mavjud. Birinchi talabga ko'ra ular aloqador shartnomaga a'zo bo'lgan davlatning fuqarosi bo'lishi kerak. Qiynoqlarga qarshi Konventsianing Fakultativ protokoli a'zo davlat fuqarolari uchun ajratilgan joylarni aniq cheklashni o'z ichiga olgan yagona shartnomadir. Ushbu shartnoma Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha kichik qo'mitaning ikkita a'zosi bir davlat vakillari bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Mutaxassislarning fuqaroligidan tashqari, inson huquqlari bo'yicha barcha shartnomaviy organlarining yana bir umumiy xususiyati shundaki,





ularning a'zolari yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Uchinchi umumiy talab shartnomaviy organ ekspertlarining xizmat ko'rsatish shartlariga taalluqlidir. Barcha shartnomalarda barcha ekspertlarning o'zining shaxsiy vakolatlari doirasida vaziasini bajarishi belgilangan.

Vakillikka kelsak, inson huquqlari bo'yicha barcha shartnomalar geografik mintaqalar, sivilizatsiya shakllari va huquqiy tizimlarning vakilligini hisobga oladi. Irqiy kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konventsiya, Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konventsiya, Qiynoqlarga qarshi konventsiya va Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsianing fakultativ protokoli a'zolari adolatli geografik taqsimot, vakillik va tsivilizatsiyaning turli shakllari va huquqiy tizimlari asosida saylashni nazarda tutadi. Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiya va barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqlari to'g'risidagi konventsiya faqat adolatli geografik vakillik va asosiy huquqiy tizimlarning vakilligiga taalluqlidir. Yuqoridagidan, migrant mehnatkashlar huquqlari to'g'risidagi konventsianing xususiyatlari inobatga olingan holda ekspertlarning ham mehnat migrantlari kelib chiqqan va ish bilan ta'minlanayotgan davlat uqarolari orasidan saylanishiga e'tibor qaratiladi.

Ba'zi shartnomalarda ekspertlarning shartnoma mazmuniga tegishli tajribaga yoki yuridik tajribaga ega bo'lishni talab qilinadi. Masalan, "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konventsiyada uning a'zolari Konventsiya qamrab olgan sohada malakaga ega bo'lishi kerakligi qayd etilgan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda va Qiynoqlarga qarshi konventsiyada ham a'zolarining yuridik tajribaga ega bo'lishi kerak ekanligi qayd etilgan. Qiynoqlarga qarshi Konventsianing Fakultativ Protokolida Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha quyi qo'mita a'zolari odil sudlovni amalga oshirish sohasida, xususan, jinoyat huquqi, qamoqxona yoki politsiya ma'muriyatida yoki ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga nisbatan muomala qilish bilan bog'liq turli sohalarda tasdiqlangan tajribaga ega bo'lishi kerakligi qayd etilgan.

Shartnomaviy organlarga a'zolikda gender muvozanatni saqlash to'g'risidagi qoidalar Qiynoqlarga qarshi Konventsiya, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiya va Barcha shaxslarni majburan yo'qolib ketishdan himoya qilish to'g'risidagi konventsianing Fakultativ Protokoliga kiritilgan. OPCAT qiynoqlarning oldini olish bo'yicha quyi qo'mita tarkibi tenglik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik tamoyiliga asoslangan muvozanatli gender vakilligini ham aks ettirishi kerakligini ta'kidlaydi.





Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsia davlatlarga nogironligi bo'lgan mutaxassislarni tanlashga tegishli e'tibor berish majburiyatini yuklaydigan yagona shartnomadir.

Ba'zi shartnomalar boshqa hujjatlarga nisbatan o'zig axis qoidalarni o'z ichiga oladi. Qiynoqlarga qarshi konventsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, a'zo davlatlar Inson huquqlari qo'mitasida allaqachon faoliyat yuritgan a'zolari ham saylashlari mumkin.

2012 yilda Bosh Assambleya tomonidan tashkil etilgan hukumatlararo jarayonni mustahkamlash va inson huquqlari bo'yicha shartnoma organi tizimining samarali faoliyatini yaxshilash¹⁴ shartnoma organlariga a'zolikni sinchiklab ko'rib chiqish hamda ekspertlarni tayinlash va saylash bo'yicha takliflar kiritish imkoniyatini berdi.

Shartnomaviy organini mustahkamlash jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar hisobot tayyorlagan va unda shartnomaviy organlar faoliyatining umumiy ko'rinishi, muammoli yo'nalishlar va taklif qilingan yechimlar ko'rsatilgan. Shartnomaviy organlarining tarkibiga kelsak, hisobot a'zolarning jinsi, mintaqasi, ish tillari va hozirgi kasbiy faoliyati bo'yicha taqsimlanishini o'rganadi. Kasb faoliyati bo'yicha toifalarga akademiklar, maslahatchilar, diplomatlar yoki davlat xizmatchilari, sudyalari yoki huquqshunoslar, parlament a'zolari, nodavlat notijorat tashkilotlari xodimlari, shuningdek, nafaqadagi BMTda faoliyat yuritgan rasmiylar, nafaqadagi diplomatlar, nafaqadagi davlat arboblari va nafaqadagi sudya va huquqshunoslar kiradi.

Shartnoma organi raislari tomonidan 1997 yildan beri o'zlarining yillik yig'ilishlarida berilgan tavsiyalarni takrorlab, Oliy komissar davlatlar shartnoma organlari tarkibida adekvat gender muvozanatiga, shuningdek, tegishli shartnoma organi vakolatlari bilan bog'liq sohalardagi ekspertiza, muvozanatli geografik tarkib va ekspertlarning o'z zimmlariga olgan majburiyatlarini bajarish bo'yicha kafolatlarga e'tibor qaratishlari kerakligini ta'kidladi. Shartnoma organlarining tarkibi ushbu xususiyatlarni aks ettirishini ta'minlash uchun Oliy komissar milliy darajadagi nomzodlarni ko'rsatish jarayonlarini inklyuziv, ochiq va shaffof tarzda o'tkazishni tavsiya qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Optional Protocol to the Convention against Torture, Art. 5(4); Convention on the Rights of Persons with Disabilities, Art. 34(4); Convention on the Protection of All Persons from Enforced Disappearances.





2. General Assembly, Resolution 66/254 - Intergovernmental process of the General Assembly on strengthening and enhancing the effective functioning of the human rights treaty body system, A/res/66/254, 15 May 2012.
3. General Assembly, Report of the Secretary General- State of the human rights treaty body system, A/71/118, 18 July 2016, paras 79-80.

